

---

## ZIYORATGOH VA QABRISTONLARDA, KO'CHALARDA HASHAR UYUSHTIRILIB, OBODONLASHTIRISH ISHLARI OLIB BORILMOQDA



Qo'shtepa tumani hokimligi tashabbusi bilan Muborak Qurbon hayiti oldidan 8-9 iyun kunlari mahallalardagi ziyoratgoh va qabristonlarda, ko'chalarda hashar uyushtirilib, obodonlashtirish ishlari olib borilishi rejalashtirildi.

Bugun erta tongdan boshlangan hasharda "G'ishtmon" mahallasidagi "G'ishtmon" qabristonida ham hashar tashkil etilib, obodonlashtirish, tozalik ishlarida 250 nafardan ziyod mahalla ahli ishtirok etdi. Natijada hudud shox-shabballardan, qabriston atrofi chiqindilardan tozalandi va ariq yo'llari ochildi.

- Erta tongdan hashar bo'lishini eshitib, mahallamizdagi yoshu qari kelishdi, - deydi "G'ishtmon" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Arabjon Abdujalilov. - Qabristonlar tozaligi va obodonchiligi uchun o'tkaziladigan hashar insonga mehr-oqibat, odamiylikdan saboq beruvchi bebaho tarbiyaviy ahamiyatga ega tadbir sanaladi. Buni anglagan mahalladoshlarimiz hasharda birdamliklarini ko'rsatishdi.

Muborak Qurbon hayiti oldidan tashkil etilgan hashar tadbirlari yakshanba kuni ham tumanimiz bo'ylab davom ettiriladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2024-06-08 10:16:47